

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI YALPI ICHKI MAHSULOTGA TA'SIRI

Xudoyberdi Po'latov O'ktamovich SamISI Katta o'qituvchisi
Madaminjon Mamadiyorov Jaloliddinovich SamISI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tarixiy turizm zona hisoblanib va shu sababli turizm sohasi jadallik bilan rivojlanayotganligi, dunyoning turfa joylaridan yurtimizdagi aynan qaysi bir turizm nuqtalariga kelayotganligi, bu borada qanday qarorlar qabul qilinayotganligi, turistlar tashrif buyurishi ortishining mamlakatimiz iqtisodiy ahvoliga ta'siri va bu ma'lumotlarni statistik raqamlarda ifodalanishi haqida.

Kalit so'zlar: Turizm, YaIM, O'zbekturizm, xususiy sayyohlik uyushmalari, yalpi ichki mahsulot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, turizm ta'siri

Абстрактный: В данной статье Республика Узбекистан рассматривается как историческая туристическая зона, в связи с чем сфера туризма развивается быстрыми темпами, какие туристические направления в нашу страну едут со всего мира, какие решения принимаются в связи с этим, влияние увеличение числа туристов на экономическое положение нашей страны и это о выражении данных в статистических цифрах.

Ключевые слова: туризм, ВВП, узбекский туризм, частные туристические объединения, валовой внутренний продукт, социально-экономическое развитие, влияние туризма.

Abstract: In this article, the Republic of Uzbekistan is considered a historical tourism zone, and therefore the tourism sector is developing rapidly, which tourist destinations in our country are coming from all over the world, what decisions are being made in this regard, the impact of the increase in the number of tourists on the economic situation of our country and this about expressing data in statistical numbers.

Key words: Tourism, GDP, Uzbek tourism, private tourism associations, gross domestic product, socio-economic development, impact of tourism

Kirish. Mamlakatimiz keskin sur'atlarda turizm markaziga aylanib bormoqda, bunga yaqqol misolki, yurtimizda oxirgi yigirma yillikda tusistlar qatnovi jadallashgan, va bu tashqi va ichki turizmni rivojlantirish borasida qator, sayyohlar va xususiy sayyohlik uyushmalari uchun qabul qilinayotgan yengillik yaratuvchi islohatlardir. Jumladan, chet eldan tashrif buyurayotgan sayyohlar va ichki sayyohat qiluvchi yurtdoshlarimizni joylarda yashash qolish va ovqatlanishini taminlash va bu tufayki kichik biznesni yo'lga qo'yish orqali ishsiz fuqorolarimizni ish bilan taminlanishi bilan iqtisodimizga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chet el fuqorolarini turizm maqsadida yurtimizga kirib kelishi, ular orqali pul mablag'lar kirib kelishi demakdir. Bu esa yalpi ichki mahsulotimiz o'sishiga o'z hissasini qo'shadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilayotganligi to'g'risida aytadi Bekturdiyev J.K. Yana shuningdek tadqiqotchi Z.M Muxammedovning takidlashicha, O'zbekistonda turizmdan keladigan daromadning yalpi ichki mahsulotdagi ulishi loaqal 5% ga yetkazilsa, aholi jon boshiga YaIM hajmi esa 392.1 ming so'mga oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot turizm sohasining YaIM ga qo'shayotgan hissasi, yangi turizm zonalarini shakllantirish va bu sohani yanada rivojlantirish bosqichlari.

Tahlil va natijalar: Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra turizmning jahon YaIM dagi ulushi 10.3% ni, yillik o'sish sur'ati 3.5%ni tashkil etdi. Ushbu sohadagi o'sish sur'ati ketma-ket to'qqiz yildan buyon jahon YaIM o'sish sur'atidan yuqori bo'lmoqda. Shuningdek yurtimiz ham turizm sohasida yuqori o'rinlarni tutmoqda, ko'plab xalqoro nashrlar fikriga ko'ra, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibador sayyohlik joylaridan biriga aylandi. Va yana Buyuk Britaniyaning The Telegraph gazetasi bu yil tashrif buyurish lozim bo'lgan shaharlar ro'yxatida Toshkent shahrimiz ham aytib o'tilgan.

2019-yilning yakuniga ko'ra, O'zbekistonga 6.748 million kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu 2018-yil statistikasidan 125% ga ya'ni 5,346 million kishiga ko'pdir. Shu bilan birga turizm xizmatlarining eksporti 1,313 milliard dollar tashkil etgan, 2018- yilda esa bu 1,041 milliard dollarga tel bo'lgan. Hammaga ma'lumki kiyingi 2020-2021 yillarda avj olgan koronavirus pandemiyasi turizm sohasiga katta salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli bu yillarda turizmni YaIM dagi ulushi pasaydi. Biroq 2022-yil dastlabki sakkiz oyida O'zbekistonga 3 mln chet el fuqorolari tashrif buyurdi. Va sayyohlarning kelish maqsadini o'rganadigan bo'lsak.

1-jadval

Tashrif buyurgan chet el fuqorolarining maqsadi.

Qarindoshlar ini ko'rish uchun	Dam olish uchun	Davolanish uchun	Xizmat yuzasidan	Tijorat uchun	O'qish maqsadida
2.2 mln. kishi	169,8 ming kishi	44,4 ming kishi	38,8 ming kishi	9,1 ming kishi	2.4 ming kishi


Yana bir statistikasi keltirib o'tsam, ya'ni shu davr ichida tashrif buyurganlar aynan qaysi bir davlatlardan kelishmoqda.

Davlatlar kesimida tashrif buyurgan chet el fuqorolarining maqsadi.

Davlatlar kesimida		
№	Davlatlar	Soni (kishi).
1.	Qozog'siston	716,7 ming
2.	Qirg'iziston	675,1 ming
3.	Tojikiston	637 ming
4.	Rossiya	247,2 ming
5.	Germaniya	8,0 ming
6.	AQSh	6,3 ming
7.	Fransiya	5,2 ming
8.	Buyuk Britaniya	4,7 ming
9.	Ispaniya	2,5 ming

YaIM mahsulot hajmi esa umumiy olganda shu qisqa davrda, 2022- yil yanvar-sentabr oylari oralig'ida 5,8% ga oshdi ya'ni 627,5 trln so'mni tashkil etdi. Bu esa aholi jon boshiga 17,7 mln so'm (1603\$) ni tashlik etdi, 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 3,6 % foizga oshganini ko'rish mumkin. Bu o'zgarishlarga turizm sohasi ham o'z hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston qadimiy qadamjolariga boy shahar hisoblanganligi tufayli aksariyat tashrif buyuruvchi turistlar tarixga nazar tashlash maqsadida kelishyabdi. Yurtimizda bunday maskanlar 2 mingdan ziyodni tashkil qiladi.

**1-diagramma. Respublikadagi tarixiy yodgorliklar soni (hududlar kesimida).**

O'z-o'zidan 1-diagrammada ko'rinadiki qadimiy daqamjolar ko'p bolgan viloyatlarimizda sahhoylar ko'p tashrif buyuradi. Va shu viloyatlarda turizmni YaIM ga qo'shadigan hissasi balandroq.

Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki mamlakat YaIM hajmi tarkibida turizm sohasining sezilarli o'rni bor, demakki biz turizm sohasiga keng etibor qaratish orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata olamiz.

Yurtimiz hozirgi turizm bozorida yaxshi o'rinni egallab turibdi, va shu tufayli sayyohlar oqimi doimiy mavjud. Asosan tarixiy maskanlarimiz ko'pligi ularni jalb etmoqda.

Biroq bu borada yanada yuqoriroqda turish uchun, faqatgina tarixiy maskanlar bilan sayyohlar jalb qilishda cheklanib qolmasdan, yangi texnologiya asri odamlari uchun ham yetarlicha takliflarni bera olishimiz kerak. Ya'ni yurtimizga tashrif buyurayotgan turistlarning ko'pchiligi yoshi kattalar, jumladan 40 va undan yuqori yoshdagi insonlarni tashkil qilmoqda. Shu sababdan biz yosh sayyohlar uchun "Ko'ngil ochar" zonalarini ham shakllantirish orqali turistlar oqimini yanada ko'paytirishimiz mumkin.

Yuqorida faktlar asosida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonga chet el fuqorolarini qatnovi asosan yaqin qo'shni davlatlardan, markaziy Osiyodan kelishmoqda. Yevropa mamlakatlaridan keladiganlar soni bir muncha past. Demakki bu borada qayta tadbirlar o'tkazib Yevropa fuqorolariga ham qadimiy qadamjolarimiz haqida qiziqish uyg'otishimiz lozim.

Buning uchun qadamjolarimiz aks etgan

- sifatli vedioroliklar;

- maqolalar;

- kinofilmlar va seriallar; kabi keng va tez ommalashuvchi vositalardan foydalanishimiz kerak. Va , albatta tashrif buyuruvchi turistlarga qulaylik yaratish uchun ko'pgina yangi loyihalarni amalga oshirishirmoq foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ширинов, У. А. (2021). AUDITORY ANALYSIS OF COMMUNICATION ENTERPRISES SEGMENTS. *Экономика и социум*, (7), 550-553.

2. Ширинов, У. А. (2021). CONCEPTUAL ISSUES OF SEGMENTARY AUDIT IN COMMUNICATION ENTERPRISES. *Экономика и социум*, (7), 554-558.

3. ШИРИНОВ, У., & НАРЗУЛЛАЕВ, Н. МОЛИЯВИЙ МАЖБУРИЯТЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ЭКОНОМИКА*, 810-813.

4. ШИРИНОВ, У. МОБИЛ АЛОҚА ХИЗМАТЛАРИДАН ОЛИНАДИГАН ДАРОМАДЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ЭКОНОМИКА*, 800-803.

5. Ширинов, У. Почта хизматларининг ҳисоб ва аудит объекти сифатидаги таснифий асослари. *Экономика*, 804-809.

6. Ширинов, У., & Нарзуллаев, Н. Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. *Экономика*, 814-817.

7. Хусанов, М. (2021). Махсус саволлар бўйича ўтказиладиган аудиторлик текширувларининг ташкилий ва методологик асослари. *Общество и инновации*, 2(4/S), 564-571.

8. Хусанов, М. Ҳ. (2021). THE NEED FOR A SPECIAL QUESTION-LIKED AUDIT. *Экономика и социум*, (5-2), 539-543.